



## XALQ DEPUTATLARI O'ZBEKISTON TUMANI KENGASHI QARORI

2023 - yil 5 - oktabr

VI-73-108-11-161-K/23

O'zbekiston tuman hokimligi

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi PQ-39-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, tumandagi oilaviy tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash markazlari bilan birgalikda dasturlar ijrosini, shu jumladan ajratilgan kreditlar samaradorligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida tuman hokimining birinchi o'rinnbosari X.Alijonovning hisoboti haqida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2023 yil 31 yanvardagi PQ-39-son qarorining 5.4- bandiga asosan oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash markazlari bilan birgalikda dasturlar ijrosini, shu jumladan ajratilgan kreditlar samaradorligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida har chorak yakuni bo'yicha xalq deputatlari tuman Kengashlarida hisobot berib borishi amaliyoti joriy etishi ko'rsatib o'tilgan, ushbu qarori ijrosini ta'minlash maqsadida tumanda oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida 2023 yilda hokim yordamchilari tomonidan 70,0 mlrd.so'm imtiyozli kredit mablag'lari ajratilishi belgilangan.

Jumladan: 1-sektorga 19,6 mlrd.so'm, 2-sektorga 18,0 mlrd.so'm, 3-sektorga 21,1 mlrd.so'm, 4- sektorga 11,3 mlrd.so'm imtiyozli kreditlar resurslari maqsadli yo'naltirish uchun ajratilgan.

Joriy yilning yanvar-sentyabr oylari davomida hokim yordamchilariga 4851 nafar fuqarolar hamda tadbirkorlik sub'yektlaridan arizalar kelib tushgan bo'lib, shundan, yanvar-sentyabr oylarida hokim yordamchilari tomonidan bularning 2988 nafariga 45,8 mlrd.so'mlik tavsiyanomalar berilgan.

Xususan, 1-sektorda 798 nafariga 11,4 mlrd.so'm, 2-sektorga 684 nafariga 10,8 mlrd.so'm, 3-sektorga 1038 nafariga 17,0 mlrd.so'm, 4-sektorga 468 nafariga 6,6 mlrd.so'm hokim yordamchilari tomonidan tavsiyanomalar berilgan.

Berilgan tavsiyanomalarga asosan tijorat banklari tomonidan 1588 nafar fuqarolarga 26,5 mlrd.so'm imtiyozli kreditlar ajratildi.

Xususan, AT "Xalq banki" tuman filiali tomonidan yanvar-sentyabr oylari

davomida 1204 ta kredit hujjatlariga 18,8 mlrd.so‘m hamda ATB “Agrobank” tuman filiali tomonidan yanvar-sentyabr oylari davomida 384 ta kredit hujjatlariga 7,7 mlrd.so‘m imtiyozli kreditlar ajratildi.

Fuqarolarga beriladigan kreditlar yo‘nalishi bo‘yicha issiqxona yo‘nalishida 95 nafar fuqaroga 2 273,0 mln.so‘m, asalarichilik yo‘nalishida 214 nafar fuqaroga 4 202,0 mln.so‘m, xunarmandchilik yo‘nalishida 31 nafar fuqaroga 724,0 mln.so‘m, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish uchun 284 nafar fuqaroga 5 126 mln.so‘m, chorvachilikni rivojlantirish uchun 174 nafar fuqaroga 3 457,0 mln.so‘m, meva-sabzavot va bog‘dorchilik yo‘nalishida 24 nafar fuqaroga 179,0 mln.so‘m, qishloq xo‘jaligi asbob-uskunalari yo‘nalishida 274 nafar fuqaroga

4 759,0 mln.so‘m, boshqa yo‘nalishlarda 492 nafar fuqaroga 5 780,0 mln.so‘m miqdorida mablag‘lar ajratilgan.

Bundan tashqari, 2022 yilda hokim yordamchilarining tavsiyanomalariga asosan ajratilgan kreditlarni maqsadli va maqsadsizligini aniqlash maqsadida joriy yilning mart oyida viloyat hokimligining ishchi guruhi tomonidan tumandagi 8 ta MFYlarda (*Oqmasjid, Kichik Oqmasjid, Qatag‘on, Eski Yaypan, Do‘ngsaroy, Nurafshon, Xotamtoy, Sho‘rsuv*) 2022 yilda ajratilgan 127 nafar fuqarolarga 3,5 mlrd.so‘m kreditlar o‘rganildi. O‘rganish yakunida 4 ta

116,0 mln.so‘mlik kreditlarning maqsadsizligi aniqlangan. Bular, Saroy MFYda 1 ta 33,0 mln.so‘m, Pastki Beshkapa MFYda 3 ta 82,9 mln.so‘m qo‘ychilik yo‘nalishida ajratilgan kreditlarning maqsadsizligi aniqlangan bo‘lib, hozirgi kunda ushbu kreditlarni qaytarish bo‘yicha tegishli tartibda ishlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-39-sonli Qarorini tumandagi ijrosi yuzasidan tuman hokimining birinchi o‘rinbosari X.Alijonovning hisoboti atroflicha muhokama qilinib, xalq deputatlari O‘zbekiston tuman Kengashi

## **QAROR QILADI:**

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi PQ-39-sonli Qarori ijrosini ta’minalash maqsadida, tumandagi oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab quvvatlash markazlari bilan birgalikda dasturlar ijrosini, shu jumladan ajratilgan kreditlar samaradorligini ta’minalash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida tuman hokimining birinchi o‘rinbosari X.Alijonovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

**2.** Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (X.Alijonov), “Agrobank” ATB tuman filiali (A.To‘ychiyev), AT “Xalq banki” tuman filiali (Sh.Yo‘ldashev), tuman mahallabay ishslash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi (lavozimiga ko‘ra) hamda mahallalarga biriktirilgan hokim yordamchilari bilan birgalikda:

- aholiga ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini oshirish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish; - kreditlarni so‘ndirish muddatlari va tasdiqlangan jadvallarga qat’iy rioya qilishni,

kreditlar bo‘yicha qarzdorlarning muddati o‘tgan qarzdorliklarning hosil bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha barcha zarur chora-tadbirlarni ko‘rish;

- mahalladagi xonadonlarni yer uchastkalaridan foydalanish darajasi, oilalarning daromad manbalari, daromadli mehnat bilan shug‘ullanishga bo‘lgan qiziqishlarini xonadonbay o‘rganish va kreditga bo‘lgan ehtiyojlarini yo‘nalishlar bo‘yicha shakllantirish;

-mahallalarda mavjud tadbirkorlarning muammolarini yechishga hamda iqtisodiy o‘sishning drayver sohalarida yangi tadbirkorlik loyihamonlarning amalga oshirishga ko‘mak berish;

-tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan fuqarolarga biznes loyihamonlarning tayyorlashda konsultativ ko‘mak berish va uni amalga oshirish jarayonlarini doimiy monitoringini qilib borish;

-oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratilayotgan kreditlar samaradorligini oshirish bo‘yicha zarur choralarini ko‘rish;

- tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagidagi fuqarolarni biznes asoslariga o‘qitish tizimini tashkil etish va ularni tadbirkorlikka yo‘naltirish;

- bank kreditlari hisobiga ishga tushirilgan va bugungi kunda past quvvatlarda ishlayotgan korxonalar bo‘yicha sabablarni aniqlab, ularning to‘liq quvvatda ishlashiga amaliy yordam ko‘rsatish choralarini ko‘rish topshirilsin.

**3. “Agrobank” ATB tuman filiali (A.To‘ychiyev), AT “Xalq banki” tuman filiali (Sh.Yo`ldashev) tuman mahallaboy ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi (lavozimiga ko‘ra) hamda mahallalarga biriktirilgan hokim yordamchilarini bilan birgalikda:**

- kreditlarni ustuvor ravishda dasturlar bo‘yicha avval kreditlardan foydalanmagan aholi va tadbirkorlik subyektlariga ajratish choralarini ko‘rish; - sektor rahbarlari bilan birgalikda aholini ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va servis, tikuvchilik, parrandachilik, bog‘dorchilik, asalarichilik, chorvachilik va baliqchilik yo‘nalishlarida bandligini ta’minlash yangi ish o‘rnini yaratish choralarini ko‘rish;

- oilaviy tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan fuqarolarga imtiyozli bank kreditlarini ajratishda muntazam yordam berish;

- ustuvor ravishda “Temir daftari”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolarga daromadli mehnat bilan band qilish yoki ularni doimiy mehnat bilan bandligini ta’minlash (ish o‘rnlari yaratish)ga qaratilgan loyihamonlarga yo‘naltirilishida mahallalardagi hokim yordamchilarini mas’uliyatini oshirish choralarini ko‘rish;

- dasturlar doirasida mahallalarga biriktirilgan hokim yordamchilarining tavsiyanomalariga asosan moliyalashtirilgan loyihamonlarni har oy yakuni bo‘yicha maqsadliligini monitoring qilib borish; - bank xizmatlarini tubdan qayta ko‘rib chiqish, xizmat turlarini yanada kengaytirish va sifatini yaxshilash choralarini ko‘rish vazifalari

yuklansin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (D.Jabborov), “Yaypan ovozi” gazetasi bosh muharriri (I.Mahkamov) ushbu qaror ijrosi bo‘yicha sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositasi hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Azamov) zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



Ш.Юлдашев